

FARG‘ONA KULOLCHILIGI NAQSHLARINI O‘ZIGA XOSLIGI VA BADIY XUSUSIYATLARI

Jamoldinova Ziynatxon Adihamjon qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti amaliy san'at fakulteti, badiiy kulolchilik yonalishi 2 bosqich magistranti.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Farg‘ona vodiysi amaliy san’atida, xususan badiiy kulolchilikda qo‘llaniladigan naqshlarning kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari hamda ularning badiiy-estetik xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil etilgan. O‘zbek xalqining boy madaniy merosi, asrlar davomida shakllanib kelgan amaliy bezak san’ati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Xalq amaliy san’ati - bu xalqning didi, mahorati, hayot falsafasi va estetik qarashlarining ifodasidir. Shu san’at turlari ichida kulolchilik san’ati o‘zining nozikligi, bezakdorligi va milliylik ruhi bilan alohida o‘rin tutadi. Kulolchilik naqshlarning kompozitsion tuzilishi, ranglar uyg‘unligi va ramziy mazmuni ilmiy manbalar asosida yoritilgan.

Annotation: This scientific article theoretically analyzes the origin, stages of formation, and artistic and aesthetic characteristics of patterns used in the applied arts of the Fergana Valley, in particular, in artistic ceramics. The rich cultural heritage of the Uzbek people, the applied decorative art that has been formed over the centuries, has not lost its significance even today. Folk applied art is an expression of the taste, skill, philosophy of life, and aesthetic views of the people. Among these types of art, the art of pottery occupies a special place with its delicacy, decorativeness, and national spirit. The compositional structure, color harmony, and symbolic content of pottery patterns are covered on the basis of scientific sources.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona naqshlari, badiiy kulolchilik, amaliy san’at, milliy bezak, kompozitsiya, ramziy ma’no.

KIRISH

O‘zbek xalq amaliy san’ati milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Amaliy san’at turlari orasida badiiy kulolchilik o‘zining qadimiyligi va badiiy ifoda imkoniyatlarining kengligi bilan ajralib turadi. Har bir hududda shakllangan naqsh maktablari xalqning dunyoqarashi, tabiiy muhit va estetik didini aks ettiradi. Farg‘ona kulolchilik naqshlarini o‘ziga xos yumshoqligi, nozik ritmi va o‘simliksimon shakllarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Ushbu naqshlarda tabiatga yaqinlik, hayotiylik va nafislik asosiy badiiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Kulolchilik buyumlarida naqshlar idish shakliga mos holda joylashtirilib, kompozitsion yaxlitlikni ta’minlaydi.

Rang tanlash masalasida Farg‘ona kulolchiligida ko‘pincha yashil, ko‘k, oq va sariq ranglarning turli ohanglari uchraydi. Ushbu ranglar nafaqat estetik vazifani bajaradi, balki ramziy ma‘noga ham ega bo‘lib, tabiat, baraka va poklik timsollarini ifodalaydi.

Farg‘ona vodiysi azaldan o‘zining betakror kulolchilik an‘analari, rang-barang naqsh uslublari va mahoratli ustalari bilan mashhur bo‘lgan. Mustaqillik yillarida ushbu hududda kulolchilik san‘ati o‘zining yangi, zamonaviy bosqichiga ko‘tarildi. Kulolchilik san‘atining tarixiy ildizlari - bu xalq amaliy san‘atining qadimiy turlaridan biridir. Farg‘ona vodiysi hududida bu san‘at asosan Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Farg‘ona shaharlarida keng rivoj topgan. Qo‘qon xonligi davrida saroylar, masjidlar va madrasalar bezaklarida ishlatilgan islmiy, girih, guldor naqshlar bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Kulolchilikning har bir ishi faqat bezak emas, balki falsafiy mazmun, xalqona ma‘no, tabiatga muhabbatni ifoda etgan. Mustaqillik yillarida milliy merosni asrab-avaylash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shu jarayonda Farg‘ona vodiysidagi qadimiy san‘at turlari, jumladan naqqoshlik san‘ati ham yangi hayot topdi. Davlat tomonidan qabul qilingan “Madaniyat to‘g‘risida”gi qonun, “Hunarmand” uyushmasining tashkil etilishi, “Oltin meros” jamg‘armasi faoliyati - bularning barchasi kulolchilik san‘atining ravnaqiga katta turtki berdi. Farg‘ona, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida kulolchilik maktablari va ustaxonalari faoliyatini boshladi.

Ustoz-shogird an‘analari va ijodiy maktablar kulolchilik san‘atining rivojlanishida ustoz-shogird an‘anasi muhim o‘rin tutadi. Mustaqillikdan keyingi davrda bu an‘ana yana jonlandi. Farg‘onalik mashhur ustalar - Abdug‘ani Jo‘rayev, Mirzaqul Nurmatov, Oqiljon Tursunov, Ulug‘bek Jo‘rayev kabi san‘atkorlar o‘z maktablarini yaratib, shogirdlar tayyorlamoqda. Ularning ijodida milliy naqsh elementlari bilan bir qatorda zamonaviy dizayn unsurlari uyg‘unlashgan. Bugungi kunda Farg‘ona vodiysi kulollarining naqshlari nafaqat an‘anaviy bezak buyumlarini, balki interyer dizayni, milliy me‘morchilik, sovg‘alik suvenirilar sohasida ham faol ishlamoqda. Ko‘za, kosa, lagan kabi turli idishlar ustida ishlanayotgan naqshlar zamonaviy san‘at bilan uyg‘unlashgan. Kulolchilikda sopol idishlar nafaqat amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan, balki ulardan bezak sifatida ham foydalanilgan. Kulolchilik mahsulotlari, ayniqsa shahar hududlarida uyning ichki bezagi bo‘lib xizmat qilgan va to‘y sovg‘alarining ajralmas qismini tashkil etgan.

Hozirgi kunda badiiy bezatish usuli, shakli va tayyorlanish usullariga ko‘ra quyidagi kulolchilik maktablari mavjud: [Farg‘ona](#) asosiy markazlari - Rishton, G‘urumsaroy, Buxoro-Samarqand asosiy markazlari - Samarqand, [Urgut](#), G‘ijduvon, Uba, Xorazm asosiy markazlari - Madir, Kattabog‘ qishloqlari), Toshkentdir. Har bir maktab o‘zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, o‘zigagiva xos xususiyatlariga ega bo‘lish bilan birga asosiy badiiy umumiylikni ham saqlagan. Farg‘onada kulolchilikning an‘anaviy badiiy va ishlab chiqarish usullari

qayta tiklandi, ishkrrli sir tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. M.Ismoilov, I.Komilov, U.Ashurov, U.Qosimov, Sh.Yusupov, A.Nazirov, M.Saidov va boshqa ustalar yaratgan buyumlar (lagan, kosalar, don mahsulotlari uchun katta xumlar) shakl jihatidan ham, bezak jihatdan ham rangbarangdir.

G‘urumsaroy kulolchilik buyumlariga bezakning mahobatli oydinligi va soddalik xosdir, bu maktab vakili usta M.Turopov sir tayyorlashdan tortib to naqsh chizishgacha bo‘lgan barcha ishlarni faqat an’anaviy usulda bajargan, bu an’anani uning shogirdi V.Buvayev va boshqalar davom ettirmoqda, yangi ijodiy yangiliklar yaratishda izlanmoqda (jumladan, mahobatli laganlar hajmini kichraytirish va boshqalar).

Kulolchilik sopol mahsulotlarini yasashda kulollar mahalliy xomashyo va ashyolardan foydalanganlar. Xususan, olovbardosh gil tuproq – gilvata, tarkibida temir bo‘lgan tuproq (jo‘sha), kvars va kvarsli qumlarni bunga misol qilish mumkin. Gil tuproq o‘z xususiyatiga ko‘ra ikki turga ajratiladi. Yumshoq, ishlov berish oson bo‘lgan tuproqdan cho‘zinchoq idishlar yasashda foydalanishgan. Qattiqroq loydan esa yassi idishlar yasashgan. Bo‘yoqlar tayyorlashda esa turli metallarning oksidlaridan foydalanishgan. Qizil, qizg‘ish va sariq rangli bo‘yoqlarni temir oksididan tayyorlashgan bo‘lsa, qora, pushti va binafsha rang tusdagi bo‘yoqlarni marganes oksididan, yashil va feruza ranglar – mis oksididan, ko‘k rangli bo‘yoqlarni kobalt oksididan olishgan.

Sopol idishlarga bezak berish ham turli usullarda amalga oshirilgan. Ustalar sopol idishlarga mo‘yqalam vositasida naqshlar solishgan, o‘yma va bosma naqshlar tushirishgan. Naqshlarda o‘simliksimon va geometrik mavzularni uchratish mumkin. Ayrim hollarda uy-ro‘zg‘or buyumlari, masalan, pichoq va qumg‘on tasvirlari uchraydi. Eng oddiy geometrik naqshlarga alohida hoshiyalarni ajratuvchi to‘g‘ri va egri chiziqlarni aytib o‘tish mumkin. To‘lqinsimon yoki ilonizi chiziqlardan asosan idish chetlari va og‘izlarida qo‘llanilgan. Turli o‘simliksimon mavzularda tushirilgan naqshlarda gullar va mevalarning har xil shakllari ko‘p uchragan. Xo‘jalik va oshxona buyumlaridan tashqari kulolchilikda hushtak vazifasini o‘tovchi kichik shakllar ham yasalgan. Odatda hushtakchalarga biror qush yoki hayvon, masalan, ajdarchalar shakllari berilgan. Ular Xudodan yomg‘ir yog‘dirishni so‘rab o‘tkazilgan marosimlarda, Navro‘z kabi bayramlarda qo‘llanilgan. Hushtakchalarni yasash va sotish bilan asosan ayollar shug‘ullanishgan.

Naprstek nomidagi muzeyda kulolchilik mahsulotlari to‘plami orasida eng qadimiy hisoblangan mahsulotlar XIX asr oxirlarida ishlab chiqarilgan. Bular asosan 1970 yillarda muzeyga kelib tushgan sirli sopol idishlar hisoblanib, ular an’anaviy idishlarning (lagan, badiya, xurma) turli ko‘rinishlaridan iborat. Shuningdek, mashhur o‘zbek kulollari tomonidan yaratilgan hushtaklar ham bu to‘plamdan joy olgan. Muzey hujjatlarida g‘urumsaroylik Mahmud Rahimov va Hakim Satimov (Farg‘ona vodiysi),

O‘balik Hamro Rahimova (Buxoro viloyati), xonqalik Rayimberdi Matchonov (Xiva yaqinida) kabi ustalar nomlari saqlanib qolgan.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona naqshlari badiiy kulolchilik san‘atining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularning o‘ziga xos badiiy xususiyatlari milliy amaliy san‘at rivojida katta ahamiyatga ega. Ushbu naqshlarni ilmiy jihatdan o‘rganish va amaliyotda qo‘llash zamonaviy san‘at rivojiga xizmat qiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng milliy madaniyat va san‘at sohalarining tiklanishi hamda rivojlanishiga katta e‘tibor berildi. Shu jarayonda Farg‘ona vodiysi qadimdan o‘zining boy madaniy merosi, ustoz-shogird an‘analari va nozik didi bilan mashhur hudud kulolchilik san‘ati bo‘yicha ham alohida o‘rin egalladi. Kulolchilik san‘ati bu o‘tmish va bugunning ko‘prigidir. U milliy qadriyatlarni zamonaviy dunyo bilan bog‘laydi, o‘zbek xalqining estetik didi va ma‘naviy boyligini namoyon etadi. Bugun kulolchilik namunalari dizayn, arxitektura va madaniyat sohalarida keng qo‘llanilayotgani kulolchilik san‘atimizning tirikligini, xalqimiz didining yuksakligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, kulolchilik san‘ati zamonaviy amaliy san‘atning faqat bezagi emas, balki uning ruhi va ma‘nosidir. Kulolchilik san‘ati o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, milliy g‘ururi va estetik didining ajralmas qismidir. U nafaqat bezak berish, balki xalqning ruhiy dunyosini, orzu-intilishlarini ifodalash vositasidir. Xalq amaliy bezak san‘atida kulolchilik - o‘tgan avlodlar bilan bugungi kun o‘rtasidagi ma‘naviy ko‘prikdir. Shu bois, bu san‘atni asrash, o‘rganish va yosh avlodga yetkazish har birimizning muqaddas burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zoxidov P. Sh. Farg‘ona naqshi. (Xalq ustasi Saidaxmad Norqoziyev albomidan) – T.: Oz adabiy nashr, 1960.
2. Mirzaxmedov M.K. Boshlang‘ich badiiy naqsh ishlash metodikasi. – Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981.
3. Nabiyev M. Rangshunoslik . – T .: Oqituvchi, 1995.
4. Ochiq osmon ostidagi muzey (Tuz. G.A.Pugachenkova) – T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1981.
5. Xasanov R. Boshlang‘ich sinflarda naqsh chizishga orgatish metodikasi. – T.: Oqituvchi, 1972.
6. Qurbonov T. Odobnoma – T.: oqituvchi, 1991.